

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA “OTA” OBRAZI TALQINI

Kamilov Miraziz Murodulla o'g'li

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti

kamilovmiraziz1999@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan an’anaviy obraz – “ota” obrazi haqida so‘z yuritiladi. Folklorlardan tortib o‘zbek va jahon adabiyotining zamonaviy namunalarigacha bo‘lgan asarlarda “ota” obrazining ahamiyati, tasvir uslubi haqida ma’lumotlar beriladi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi hamda “Ikki eshik orasi” romanlarida tasvirlangan “ota” obrazi atroflicha tahlil qilinib, uning asar syujetida tutgan o‘rni belgilanadi.

Kalit so‘zlar: “ota” obrazi, O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, Orif oqsoqol, personaj, epizod, syujet.

Badiiy adabiyot hayotni badiiy obrazlar va vositalar yordamida tasvirlash vositasidir. San’atning hech bir turi inson ruhiyati, tuyg‘ular va ichki kechinmalari haqida adabiyotchilik aniq tasvir va real xulosalarni bera olmaydi. Adabiy asar hayot haqiqatlarini tasvirlashda real borliqdagi obrazlardan unumli foydalanadi. Bu esa real hayotga yorqinroq ranglarda tasvirlay olgan badiiy asarlarning yaratilishiga sabab bo‘ladi. Badiiy adabiyot syujetida ana shunday muhim rol o‘ynaydigan an’anaviy obrazlardan biri – “ota” obrazidir.

Mumtoz adabiyot namunalaridan tortib XXI asrda yaratilgan adabiy asarlargacha “ota” obrazidan juda unumli foydalanilgan. Ular orasida turli mavzu va janrlardagi asarlarni uchratishimiz mumkin.

Shu o‘rinda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi “ota” so‘ziga berilgan ta’rifga e’tiborimizni qaratamiz:



“Ota” farzandli, bola-chaqali er kishi. (o‘z bolalariga nisbatan). Misol: Ota bo‘lmay, ota qadrin bilmas¹³”.

Badiiy adabiyotda “ota” obraziga bog‘liq ilk qaydlar folklor asarlarida uchraydi. Masalan, “Ota rozi – xudo rozi” kabi xalq maqollarida “ota” obrazidan unumli foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotining durdona asari sanalmish “Alpomish” dostonida ham “ota” obrazi asar voqealari markazida turadi. Dostonda “ota” obrazning naqadar muhim yer olganligini Qultoyning Alpomishga qilgan quyidagi nasihatidan ham bilishimiz mumkin:

Eshit boboning so‘zini,
Qultoy chol deydi o‘zini.
Sog‘-salomat olib kelgin,
Boysaribiyning qizini.
Lekin yo‘lingga termultirma,
Ota-enangning ko‘zini¹⁴.

Yozma adabiyotda ham syujeti “ota” obrazi atrofida qurilgan asarlar talaygina. Jahon adabiyotida Turgenevning “Otalar va bolalar”, Onore de Balzakning “Gorio ota”, Fridrix Shillerning “Qaroqchilar” asarlarini bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yaratgan asarlar mazmuni va syujetida ham “ota” obrazi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Yulduzlar mangu yonadi”, Shukur Xolmirzayev “O‘zbek bobo”, Muxtor Xudoyqulovning “Otam haqida hikoyalar”, Isajon Sultonning “Qismat”, Omon Muxxtorning “Oppoq qor”, Fayzulla Salayevning “Uzro”, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” asarlarini “ota” obrazisiz tasavvur etish qiyin.

¹³O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli, 3-jild. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 151-bet.

¹⁴“Alpomish” – o‘zbek xalq dostoni, T.: Fan, 2018.



Milliy adabiyotimizda yana shunday asarlar borki, ular bevosita “ota” obrazi asosida yaratilmagan. Ammo o‘zbek milliy mentalitetini bor bo‘y-basti bilan tasvirlash uchun bu obrazdan juda unumli foydalanilgan. Zero, o‘zbek xalqi mentalitetini va oilaviy qadriyatlarini “ota” siymosisiz tasavvur etish qiyin. Masalan, O‘tkir Hoshimov asarlarida o‘zbekona “ota” obrazining tipik namunasi yaratilgan deyishimiz mumkin.

O‘tkir Hoshimov o‘zbek xalqi madaniyati va qadriyatlarini juda jonli shaklda tasvirley olgan sanoqli iste’dodli yozuvchilardan biridir. Adibning ustozlari Said Ahmad bu haqida shunday degan edi: “O‘tkir Hoshimov xalqimizning fidoyi, rostgo‘y yozuvchisi sifatida hamisha o‘z mavzusi bo‘lib kelgan, xalq hayotini uzluksiz kuzatadi va undan aytish nihoyatda zarur nuqtalarini qalamga oladi¹⁵”.

Adib asarlaridagi har bir obraz o‘ta tabiiy, ya’ni soxta xatti-harakatlari bilan o‘quvchini o‘zidan bezdirmaydi. O‘tkir Hoshimovning kichik hikoyalaridagi qahramonlar ham, katta syujetli romanlaridan joy olgan obrazlar ham millat uchun begona emas. Chunki bu obrazlar ular har kuni ko‘radigan, suhbatlashadigan, birga yashaydigan oddiy odamlardir. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulovning quyidagi fikrlarini keltirish juda o‘rinli: “O‘tkir Hoshimov inson, iste’dodli yozuvchi, lavozimdagi rasmiy shaxs. Aqlli, dono inson... U – ko‘p betakror adabiy qahramonlar yaratgan taniqli yozuvchidir¹⁶”.

Yozuvchining “Dunyoning ishlari” qissasi, ayniqsa, ana shunday jonli tasvirlarga ega asar hisoblanadi. O‘quvchi uni o‘qirgan, o‘z bolaligini, o‘z ota-onasi siymosini yaqqol his qilib turadi. Qissa markazida “ona” obrazi turadi. Buni taniqli adabiyotshunos olim O. Sharofiddinov “Ona” nomli maqolasida shunday bayon qilgan edi: “Dunyoning ishlari” avtobiografik material asosida qurilgan bo‘lsa-da, yozuvchi onaning biografiyasini mukammal tasvirlashni maqsad qilib qo‘ymagan. Uning asosiy maqsadi – ona siymosida mujassamlangan ma’naviy-axloqiy e’tiqodlarni tahlil qilish,

¹⁵ SAVIYA.UZ. “Cho‘l havosi”dan “Ikki eshik orasi”gacha.

¹⁶ Rasulov A. Ardoqli adib.O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., “Sharq”, 2001.



ularni bugungi kun nuqtayi nazaridan idrok etishdir. Bu esa qissaga falsafiy teranlik baxsh etadi¹⁷”.

Akademik M. Qo‘shjonov esa “Onaga ta‘zim” maqolasida mazkur qissani ona bilan farzand o‘rtasidagi o‘zbekona munosabatlarning o‘ziga xosligi tasvirlangan asar deya baholaydi¹⁸.

Darhaqiqat, asardagi har bir hikoya “ona” siymosi atrofida quriladi. Ammo bu asardagi boshqa qahramonlarning tabiiy va jonli tasvirlariga zarracha putur yetkazmaydi. Masalan, qissadagi “ota” obrazi oilada o‘z o‘rni va so‘ziga ega, halol, qattiqqo‘l, ammo mehribon o‘zbek otasi siymosidir. Quyida bu obraz xarakteri bilan bog‘liq ba‘zi masalalarni ko‘rib chiqamiz.

Islom va o‘zbek madaniyatida ota-onaning farzandlarga birdek adolatli bo‘lishi kerak ekanligi ta‘kidlanadi. Tabiiyki, bu mas‘uliyat ota zimmasiga tushadi. Chunki ona baribir ona. U ham bir farzandini boshqasidan ustun ko‘rmaydi. Ammo nimjon yoki kasal bo‘lgan farzandini asrashga harakat qiladi. Aynan shunday holat adolatli “ota” obrazini o‘rtaga chiqaradi. Yozuvchi ba‘zan akasiga nisbatan biroz nimjon bo‘lgan bosh qahramonni onasi tomonidan ayalishi sahnasida otasining holatini quyidagicha tasvirlaydi:

“Ba‘zan dadamning jahli chiqadi. “Nima, buningni boshida shoxi bormi, ishlasinda”, deydi...¹⁹”

Mazkur epizoddagi shu ikki jumla haqiqiy o‘zbek otasining siymosini ko‘z oldimizga gavdalantiradi.

Asarda yozuvchi ba‘zan “ota” obrazi orqali madaniyatning ba‘zi elementini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Masalan, bir o‘rinda bosh qahramon ehtiyotsizlik bilan talqonni yerga to‘kib yuboradi. “Ota” kelganda esa uning jahlidan farzandini himoya qilmoqchi bo‘lgan ona aybni o‘z bo‘yniga oladi. Bu o‘rinda “ota”ning o‘zini qanday tutishini quyidagi jumladan ko‘rishimiz mumkin:

¹⁷ Sharofiddinov O. Ona// O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 1985. 5-mart

¹⁸ Qo‘shjonov M. Onamga ta‘zim// Qishloq haqiqati. 1982. 20 mart.

¹⁹ O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. T.: Yangi asr avlodi, 2015. 12-bet.



“– Padaringga la’nat! – dedi dadam sekin, ammo tahdidli ohangda. – Kap-katta xotin uvol qilib o’tirsang. Bilib qo’y, non ko’r qiladi seni! – U shaxt bilan o’rnidan turdi-da, bir hatlab supadan tushdi. Tez-tez yurib ko’chaga chiqib ketdi²⁰”.

Bu parchada adib o’quvchiga onaning farzandiga bo’lgan mehridan tashqari o’zbek xalqi uchun juda tanish tushuncha – uvol haqida ham obrazli ma’lumot berib o’tadi. Bu ma’lumotni berishni esa asardagi eng vazmin obraz – “ota” zimmasiga yuklaydi. Chunki oilada ota aytgan nasihat bolalarning yurak-yuragigacha kirib borishi ayni haqiqat.

Qissadagi jahldor, qattiqqo’l “ota” aslo zolim va johil emas. U vaqti kelganda farzandlarini urishadi, uradi, ammo aslida ularning kelajagiga befarq emas, ularga yaxshi bo’lishini xohlaydi, xolos. Aslida bu tipik o’zbek otasi uchun xos xususiyatdir. Mana bu parchada bu yaqqol ko’zga tashlanadi:

“Kechki ovqatdan keyin opam idish-tovoqni yuvish uchun oshxonaga chiqib ketganida oyim dadamga qaysi kungi sovchilar tag’in kelishganini aytdi.

– Yaxshi, tag-zoti ko’rgan odamlarga o’xshaydi. O’g’liyam muallim emish. Uningiz yo’q, buningiz yo’q deb o’tirmaymiz, boriga baraka qilib to’y qilaveramiz, deyishyapti.

Dadam anchagacha indamadi.

– Surishtirib ko’rish kerak, – dedi oxiri. – Bu – umr savdosi. – Keyin shisha nosqovog’ini olib, nos otdi. – Qizingni ko’ngliniyam bilish kerak²¹”.

Bu o’rinda “ota” qizining kelajagi uchun yolg’iz qaror qabul qilmaydi. Unga farzandining fikri juda muhim.

O’tkir Hoshimovning inson ichki kechinmalari juda aniq tasvirlangan asarlaridan yana biri – “Ikki eshik orasi” romanidir. Asarda 150 ga yaqin personaj bor. Ularning ba’zilarisiz asar suyjetini tasavvur ham etib bo’lmaydi, ba’zilari esa ikkinchi darajali qahramonlar. Yozuvchi bu qahramonlarning har biriga o’ziga xos vazifa yuklaydi. Ana

²⁰ O’tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. T.: Yangi asr avlodi, 2015. 24-bet.

²¹ O’tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. T.: Yangi asr avlodi, 2015. 54-bet.

shunday obrazlardan biri – Orif oqsoqol obrazidir. Bu obraz ham tom ma'noda yuqoridagi asar tahlilida ko'rganimiz kabi o'zbek "ota"si tasviridir.

Orif oqsoqol insonparvar, odamlar orasida o'z obro'-e'tiboriga ega, og'ir vaziyatlarni yengib etishda o'zida kuch topa oladigan, hatto boshqalarga ham bunga yordam beradigan, istalgan paytda haqiqatni odamlar yuziga ayta oladigan donishmand va tashabbuskor qariya. U odamlarga o'z prinsipi bilan baho beradi – "mard odamning belida belbog'i bo'lishi kerak". Ko'rib turganimizdek, bu qahramon haqiqiy o'zbek oilasi ustuni – "ota" obrazidir.

Orif oqsoqolning donishmand qiyofasi quyidagi bir epizoddayoq o'z isbotini topadi. Oqsoqol o'g'li urushda halok bo'lgandan keyin kelinini ham o'z farzandi sifatida qabul qiladi. Kelini o'g'liga xiyonat qilganda ham boshqa odamlar singari kelinini g'azab va isnodga duchor qilmaydi. Chunki uni o'z farzandi sifatida ko'radi. Qaysi ota o'z farzandining hayotini bir umrlik isnodga cho'mishini istaydi?! Shuning uchun Orif oqsoqol kelinini sevganiga nikoh o'qitib beradi. Bu bilan u o'zining naqadar donishmand, oqil inson ekanligini ko'rsatadi hamda o'zida mukammal "ota" qiyofasini jonlantiradi²².

Bu epizodni professor Qozoqboy Yo'ldoshev shunday izohlaydi: "Oqsoqolning o'z kelinini Zuhрани yoqtirgan kishisiga nikohlab bergan epizodini eslang: kishi ruhiyatini ostin-ustun qiluvchi larzakor tasvir milliy belgilarimizning, avvalo, Oqsoqol obrazida, so'ng shu manzara ishtirokchilari timsolida yorqin nurlanib namoyon bo'lganligiga guvohimiz²³".

Yuqorida ko'rib chiqqanimiz kabi ijodkor asarda o'zbek xalqi hayoti va madaniyatini tasvirlashni maqsad qilgan ekan, buni "ota" obrazisiz amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun mahoratli nosir O'tkir Hoshimov ham qissa va romanlarida bu obraz gardaniga juda mas'uliyatli vazifa yuklaydi. Ular asarlarda eng vazmin va og'ir qarorlarni qabul qiladilar, qiyinchiliklarni bo'ynilariga oladilar,

²² O'tkir Hoshimov. Umr savdosi. Ikki eshik orasi/ -T.: Sharq, 1993.

²³ Yo'ldoshev Q. Ko'ngil mulkiga sayr // Turkiston, 1996. 9-dek.



farzandlarining kelajagi uchun hamma narsaga tayyor bo'ladilar. Aslida ijodkor bu orqali faqat badiiy qahramon yaratishni emas, har bir o'quvchiga o'z otasi haqida nimalarnidir eslatishni ham maqsad qiladi va buni a'lo darajada uddalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Alpomish" – o'zbek xalq dostoni, T.: Fan, 2018.
2. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. T.: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Hoshimov O'. Umr savdosi. Ikki eshik orasi/ -T.: Sharq, 1993.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli, 3-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 151-bet.
5. Qo'shjonov M. Onamga ta'zim// Qishloq haqiqati. 1982. 20 mart.
6. Rasulov A. Ardoqli adib.O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., "Sharq", 2001.
7. SAVIYA.UZ. "Cho'l havosi"dan "Ikki eshik orasi" gacha.
8. Sharofiddinov O. Ona// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1985. 5-mart
9. Yo'ldoshev Q. Ko'ngil mulkiga sayr // Turkiston, 1996. 9-dek.